QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.155

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA AKADEMIK DISKURSNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI: INSON VA AI MATNLARINING QIYOSIY TAHLILI

Sobitxonova Feruzaxon Hafizxon qizi
Namangan davlat universiteti magistranti
E-mail: sobitxonovaferuza02@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada akademik diskurs tushunchasi, uning lingvistik xususiyatlari hamda zamonaviy ilmiy muloqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’siri bilan sodir bo’layotgan o’zgarishlar tahlil qilinadi. Akademik diskurs ilmiy bilimni yaratish, uzatish va ommalashtirish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli uning tuzilish, leksik-grammatik va pragmatik xususiyatlarini o’rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo’nalishlaridan biriga aylandi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan matnlarning ko’payishi akademik diskursning an’anaviy me’yorlari, mualliflik tushunchasi, stilistik xususiyatlari va akademik halollik masalalarini qayta ko’rib chiqishni talab etmoqda. Shu bois maqolada sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan akademik matnlar an’anaviy akademik matnlar bilan qiyosiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *akademik diskurs, ilmiy matn, lingvistik xususiyatlar, akademik matnlar, sun’iy intellekt, akademik halollik, stilistika.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕКСТОВ ЧЕЛОВЕКА И ИИ

Аннотация*: В данной статье анализируется понятие академического дискурса, его лингвистические особенности и изменения, происходящие в современном научном общении под влиянием технологий искусственного интеллекта. Академический дискурс является важным фактором в процессе создания, передачи и популяризации научных знаний. Поэтому изучение его структурных, лексико-грамматических и прагматических особенностей стало одним из актуальных направлений современного языкознания. Распространение текстов, созданных на основе искусственного интеллекта, требует пересмотра традиционных норм академического дискурса, авторского понимания, стилистических особенностей и вопросов академической честности. Поэтому в статье академические тексты, созданные искусственным интеллектом, рассматриваются в сравнении с традиционными академическими текстами.*

Ключевые слова: *академический дискурс, научный текст, лингвистические особенности, академические тексты, искусственный интеллект, академическая честность, стилистика.*

LINGUISTIC FEATURES OF ACADEMIC DISCOURSE IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF HUMAN AND AI TEXTS

Annotation: *This article analyzes the concept of academic discourse, its linguistic features and the changes that are taking place in modern scientific communication with the influence of artificial intelligence technologies. Academic discourse is an important factor in the process of creating, transmitting and popularizing scientific knowledge. Therefore, the study of its structural, lexical-grammatical and pragmatic features has become one of the most relevant areas of modern linguistics. The proliferation of artificial intelligence-based texts calls for a revision of the traditional norms of academic discourse, the concept of authorship, stylistic features, and issues of academic integrity. Therefore, the article covers academic texts created by artificial intelligence in a comparative way with traditional academic texts.*

Keywords: *academic discourse, scientific text, linguistic features, academic texts, artificial intelligence, academic integrity, Stylistics.*

Kirish

So’nggi yillarda ChatGPT va shunga o’xshash bir qator sun’iy intellekt dasturlaridan millionlab odamlar foydalanib kelishmoqda. Bu dasturlar ta’lim tizimida katta o’zgarishlarga sabab bo’lish bilan birga, jamiyatga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Xususan, o’quvchilar bilimini baholashda ishlatiladigan ilmiy topshiriqlar, insho, esse va hatto oliygohlar talabalaridan talab qilinadigan tezis, dissertatsiya, ilmiy maqolalar yozilishida ham bu dasturlardan foydalanilmoqda. Bu esa akademik diskurs tabiatini, mualliflik huquqi masalalarini hamda ilmiy matnlarning lingvistik xususiyatlarini qayta ko’rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Yosh avlod texnologiya vositalaridan keng ko’lamda foydalanish imkoniyatiga ega bo’lgan zamonda, ta’lim jarayonidagi baholashda shaffoflikni ta’minlash pedagoglar uchun ham turli xil muammolar tug’diradi.

Akademik diskurs ilmiy muloqotning asosiy shakli bo‘lib, u aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, rasmiy uslubga xosligi, mantiqiylik, izchillik va dalillanganlik kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Akademik matnlarning samaradorligi ko‘pincha ularning lingvistik vositalari — leksik tanlov, sintaktik murakkablik, diskurs markerlari, matnni bog’lovchi va mantiqiy izchillikni ta’minlovchi vositalar hamda muallif pozitsiyasini ifodalovchi pragmatik birliklar orqali belgilanadi. Shu jihatdan, inson tomonidan yaratilgan akademik matnlar uzoq yillar davomida shakllangan ilmiy yozuv an’analari asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar algoritmik modellarga tayanadi. Natijada ushbu ikki turdagi matnlar o‘rtasida lingvistik va diskursiv farqlar mavjud bo‘lishi ehtimoli yuqori. So‘nggi tadqiqotlar sun’iy intellekt yaratgan akademik matnlarning grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan izchil va umumiy sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishiga qaramay, ularning

uslubiy, pragmatik va diskursiv xususiyatlari inson yozgan matnlardan sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, muallif pozitsiyasini ifodalash, baholash, ehtiyotkorlik, dalillash strategiyalari hamda stilistik xilma-xillik kabi jihatlar inson yozuviga xos muhim belgilar sifatida qayd etiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — inson tomonidan yaratilgan akademik matnlar va sun’iy intellekt yordamida yaratilgan akademik matnlarning diskursiv hamda lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdir. Tadqiqot doirasida akademik uslubning stilistik markerlari, leksik-semantik xususiyatlar, diskurs markerlari, pragmatik birliklar hamda matnning bog’lovchi va mantiqiy izchillikni ta’minlovchi vositalari o‘rganiladi. Ushbu qiyosiy tahlil natijalari akademik yozuvning zamonaviy o’zgarishlarini aniqlash hamda sun’iy intellektning ilmiy diskursga ta’sirini baholashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Akademik diskurs zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib, ilmiy bilimni yaratish, uzatish va baholash jarayonida qo'llaniladigan lingvistik hamda kommunikativ vositalar majmuasini ifodalaydi. So'nggi yillarda akademik yozuvni sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratish imkoniyatining paydo bo'lishi ushbu diskursning an'anaviy xususiyatlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli akademik diskursning lingvistik tabiati va sun'iy intellektning ilmiy yozuvga ta'sirini o'rganish zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Akademik diskurs nazariyasining shakllanishida Teun A. van Dijkning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. Olim diskursni faqat matn sifatida emas, balki kognitiv jarayonlar, ijtimoiy kontekst va kommunikativ maqsadlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan murakkab hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, matnning mazmuni va tuzilishini to'liq anglash uchun uni yaratilgan kontekstdan ajratib bo'lmaydi. Shu bois diskurs tahlili matnning grammatik yoki leksik tuzilishini o'rganish bilangina cheklanmay, muallifning kommunikativ niyati, matn qabul qiluvchining bilimlari hamda ijtimoiy omillarni ham qamrab olishi lozim [1]. Mazkur nazariy yondashuv akademik matnlarni lingvistik va diskursiv jihatdan tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Akademik diskursning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari Ken Hyland tomonidan batafsil tadqiq etilgan. Uning ta'kidlashicha, akademik yozuv faktlarni bayon qilish bilangina cheklanmaydi, balki muallif va o'quvchi o'rtasidagi ilmiy muloqotni ham tashkil etadi. Akademik matnlarda obyektivlik, aniqlik, mantiqiy izchillik va dalillarning asoslanganligi asosiy mezonlar hisoblanadi. Shu bilan birga, muallif o'z pozitsiyasini ehtiyotkorlik bilan ifodalash uchun ehiyotkorlikni ifodalovchi til birliklari (hedging), munozarani kuchaytirish uchun esa turli diskurs strategiyalaridan foydalanadi. Hyland akademik uslubning muhim ko'rsatkichlari sifatida terminologik so’zlar, formal uslub, matnni bog’lovchi vositalar, diskurs markerlari hamda muallifning ilmiy pozitsiyasini ifodalovchi lingvistik birliklarni alohida ta'kidlaydi [2]. Mazkur qarashlar akademik matnlarning stilistik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Nazariy qarashlardan tashqari, so'nggi yillarda AI va inson tomonidan yaratilgan matnlarni qiyosiy o'rganuvchi empirik tadqiqotlar ham ko'paymoqda. Herbold va

hammualliflari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari AI tomonidan yaratilgan matnlar grammatik to'g'riligi va umumiy izchilligi bilan ajralib turishini ko'rsatgan bo'lsa-da, inson yozgan matnlarda uslubiy xilma-xillik, argumentatsiya strategiyalari va diskursiv moslashuv darajasi yuqoriroq ekanligini aniqlagan [3].

Desaire va hammualliflari sun'iy intellekt hamda inson tomonidan yozilgan ilmiy matnlarning stilistik va lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson mualliflari yozgan ilmiy matnlar odatda murakkabroq argumentatsiya, uzunroq abzatslar va ehtiyotkorlikni ifodalovchi til vositalaridan (masalan, however, although, but) kengroq foydalanishi bilan ajralib turadi. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar esa grammatik jihatdan to'g'ri va ravon bo'lishiga qaramay, uslubiy xilma-xillik hamda individual mualliflik uslubini ifodalashda cheklanganligi kuzatilgan. Mualliflar ushbu lingvistik farqlar asosida inson va AI tomonidan yaratilgan akademik matnlarni yuqori aniqlik bilan farqlash mumkinligini ta'kidlaydilar [4].

Metodologiya

Bu tadqiqot inson tomonidan yaratilgan akademik matnlar va sun’iy intellekt yordamida yaratilgan akademik matnlarning lingvistik va diskursiv xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi qiyosiy lingvistik tahlilga asoslanadi. Tahlil jarayonida inson va sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning leksik, sintaktik, stilistik, diskursiv va pragmatik xususiyatlari o‘zaro qiyoslanadi.

Tadqiqot materiali sifatida akademik maqolalarning kirish qismlari tanlandi. Inson tomonidan yaratilgan matn sifatida o‘zbek tilida muallif Shaxlo Yusufjonova tomonidan yozilgan „Frazeologik birliklarning ayrim lingvistik xususiyatlari” ilmiy maqolasining “Kirish” qismi olindi. Sun’iy intellekt matni esa xuddi shu tadqiqot yo‘nalishi va mazmuniy talablar asosida GPT-6 modeli yordamida yaratildi. Shu tariqa tadqiqot korpusini ikki turdagi material tashkil etadi: inson tomonidan yozilgan akademik maqolaning kirish qismi va sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan akademik kirish matni. Tahlilning obyektivligini ta’minlash maqsadida inson va AI matnlari bir xil funksional-semantik qism — akademik maqolaning kirish qismi doirasida o‘rganiladi. AI matnini yaratishda inson matnlari bilan bir xil mavzu va kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan topshiriqdan foydalaniladi. Bu yondashuv matnlarning mazmuniy va janriy jihatdan taqqoslanish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqotda, avvalo, matnlarning leksik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bunda akademik leksika, terminologik birliklar, formal uslubga xos so‘zlar, takroriy leksik birliklar va leksik xilma-xillik kabi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratiladi. Mazkur tahlil inson va AI matnlarida leksik tanlovning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. [5].

Keyingi bosqichda sintaktik va stilistik xususiyatlar o‘rganiladi. Xususan, gaplarning uzunligi va sintaktik murakkabligi, qo‘shma va murakkab konstruksiyalar, nominalizatsiya, passiv konstruksiyalar hamda akademik uslubga xos boshqa grammatik vositalarning qo‘llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, matnlarda stilistik xilma-xillik va individual mualliflik uslubining namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida diskursiv vositalarning qo‘llanishi qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Bunda diskurs markerlari, matn qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlovchi

vositalar hamda fikrlarning mantiqiy izchilligini shakllantiruvchi birliklar tahlil qilinadi. Ushbu mezonlar asosida inson va AI matnlarining strukturaviy yaxlitligi va fikrlar rivojining o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Pragmatik tahlil doirasida muallif pozitsiyasining ifodalanishi, ilmiy fikrni ehtiyotkorlik bilan bayon qilish, baholash, ta’kidlash va argumentatsiya strategiyalariga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, ilmiy da’volarning qat’iylik darajasi, muallifning o‘z fikriga munosabati va o‘quvchi bilan ilmiy muloqotni shakllantiruvchi lingvistik vositalar qiyoslanadi.

Tadqiqotda tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlari birgalikda qo‘llaniladi. Dastlab har bir matnning lingvistik xususiyatlari alohida tavsiflanadi, so‘ngra aniqlangan ko‘rsatkichlar inson va AI matnlari o‘rtasida qiyoslanadi. Natijalar asosida ikki turdagi akademik matnning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi hamda sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning akademik diskurs me’yorlariga muvofiqlik darajasi baholanadi.

Mazkur metodologik yondashuv sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan akademik matnlarni faqat grammatik to‘g‘rilik yoki mazmuniy izchillik nuqtayi nazaridan emas, balki akademik diskursning leksik, sintaktik, stilistik, diskursiv va pragmatik xususiyatlari asosida kompleks ravishda baholash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqotning dastlabki bosqichida sun’iy intellekt va inson tomonidan yaratilgan matnlarning umumiy hajmi hamda sintaktik tuzilishi qiyoslandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matn 224 ta so‘z va 15 ta gapdan, inson tomonidan yaratilgan matn esa 285 ta so‘z va 17 ta gapdan tashkil topgan. Demak, inson tomonidan yaratilgan matn hajm jihatidan sun’iy intellekt matnidan 61 ta so‘zga uzunroq bo‘lib, gaplar soni bo‘yicha ham ikki birlik ustunlikka ega. Matnlarning o‘rtacha gap uzunligi ham muayyan farqni ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt matnida bir gapga o‘rtacha 14 ta so‘z to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, inson matnida ushbu ko‘rsatkich 16 tani tashkil etadi. Bu esa inson tomonidan yaratilgan matnda fikrlarning nisbatan uzunroq sintaktik birliklar orqali ifodalanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, inson matnining yakuniy gapida 47 ta so‘zning qo‘llanishi uning sintaktik jihatdan ancha zich va murakkab tuzilganligini ko‘rsatadigan muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Sun’iy intellekt matnida esa gaplar nisbatan bir xil hajmda tashkil etilgan. Undagi gaplarning aksariyati qisqa va o‘rta uzunlikdagi konstruksiyalardan iborat bo‘lib, fikrlar ketma-ketligi bir necha alohida gaplar orqali rivojlantirilgan. Masalan, matnning dastlabki qismida frazeologik birliklarning umumiy xususiyati, ularning semantik tabiati va o‘rganilish ahamiyati alohida gaplar orqali izchil bayon qilinadi. Bu esa AI tomonidan yaratilgan matnda axborotni kichik va nisbatan mustaqil sintaktik birliklarga ajratish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Inson tomonidan yaratilgan matnda esa fikrlar ko‘proq bir-biri bilan sintaktik va mantiqiy jihatdan bog‘langan holda rivojlanadi. Dastlab tilning kommunikativ va nominativ vazifasi izohlanadi, keyin ushbu fikr barqaror va turg‘un birikmalarga nisbatan qo‘llanadi, undan so‘ng ularning leksik va sintaktik maqomi muhokama qilinadi. Bunday tuzilish matnning argumentativ xarakterini kuchaytiradi va mavzuga umumiy nazariy nuqtayi nazardan kirib borish imkonini beradi. Shunday qilib, dastlabki sintaktik tahlil AI tomonidan

yaratilgan matnda nisbatan qisqaroq va bir maromdagi gaplar ustunligini, inson tomonidan yaratilgan matnda esa uzunroq va murakkabroq sintaktik birliklardan foydalanish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatdi.

Matnlarning leksik tarkibini qiyosiy tahlil qilish ularning ilmiy mazmunni ifodalash usulida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Har ikki matnda frazeologik birliklar va ularning lingvistik xususiyatlarini ifodalovchi ilmiy birliklar faol qo‘llangan bo‘lsa-da, ularning tanlanishi va matn tarkibida bajaradigan vazifasi bir xil emas.

Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnda leksik birliklar, asosan, frazeologik birliklarning umumiy lingvistik xususiyatlarini tavsiflashga yo‘naltirilgan. AI matnining yana bir leksik xususiyati — bir mazmuniy maydonga mansub birliklarning izchil takrorlanishidir. Masalan, “frazeologik birliklar”, “xususiyat”, “ma’no”, “tarkib”, “birlik” kabi so‘zlar turli gaplarda qayta qo‘llanadi. Bunday takrorlar matnning mavzuga yo‘naltirilganligini saqlab turish bilan birga, uning mazmuniy markazini ham aniq belgilaydi. Shu bilan birga, AI matnida ilmiy fikrni ifodalash uchun nisbatan umumiy va keng qo‘llanadigan akademik leksik birliklar ustunlik qiladi.

Inson tomonidan yaratilgan matnda esa leksik tarkibning terminologik jihatdan nisbatan ixtisoslashganligi kuzatiladi. Dastlab “kommunikativlik”, “nominativ funksiya”, “leksik birliklar”, “barqaror birlik”, “turg‘un birikma”, “grammatik tuzilish”, “sintaktik sath” kabi birliklar qo‘llanadi. Keyingi qismda esa “leksik birliklar qatori”, “sintaktik hodisa”, “giperonimik xarakter”, “differensial belgilar”, “integral belgi” kabi torroq lingvistik terminlar paydo bo‘ladi. Shuningdek, inson matnida terminlarning oddiy sanab o‘tilishi emas, balki ularning o‘zaro munosabati izohlanadi. Masalan, “barqaror birlik” va “turg‘un birikma” atamalarining tilshunoslikda parallel qo‘llanishi qayd etilib, ularning ma’no va grammatik xususiyatlari izohlanadi. Bu holat inson matnida leksik birliklarning argumentatsiya jarayonida faol ishtirok etishini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim farq manbaga murojaat qilish bilan bog‘liq. Inson matnida Sh. G‘anievaning monografiyasiga bevosita murojaat qilinib, “tayyorlik”, “barqarorlik”, “turg‘unlik” va “integral belgi” kabi tushunchalar ilmiy manba bilan bog‘langan. AI tomonidan yaratilgan matnda esa ushbu turdagi aniq bibliografik yoki muallifga bog‘langan terminologik murojaat mavjud emas. Shu jihatdan inson matnining leksik tarkibi individual ilmiy manba va muayyan lingvistik terminologiya bilan kuchliroq bog‘langan.

Xulosa qiladigan bo’lsak, leksik tahlil AI matnida mavzuni umumlashtiruvchi va tavsiflovchi akademik leksikaning, inson matnida esa ixtisoslashgan lingvistik terminlar va ularni izohlovchi leksik birliklarning nisbatan faol qo‘llanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida sun’iy intellekt va inson tomonidan yaratilgan matnlarda fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanish, mantiqiy izchillik hamda matnning yaxlitligini ta’minlovchi vositalar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Har ikkala matnda ham alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarni ifodalash uchun leksik takrorlar va bog‘lovchi birliklardan foydalanilgan. Biroq ularning matnni tashkil etishdagi vazifasi va fikrlarning rivojlanish usulida ayrim farqlar kuzatildi.

Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnda fikrlar asosan mavzuga bevosita bog‘langan leksik birliklarning takroriy qo‘llanishi hamda mantiqiy munosabatni ko‘rsatuvchi bog‘lovchi vositalar orqali birlashtirilgan. Xususan, “shu sababli”, “shu bilan birga”, “biroq”, “shuning uchun”, “bundan tashqari” kabi birliklar fikrlar o‘rtasidagi sabab-natija, qo‘shimcha va qarama-qarshilik munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, dastlab frazeologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlari tavsiflanib, keyingi qism “Shu sababli” birligi orqali ushbu birliklarni o‘rganishning ahamiyatiga bog‘lanadi. Keyinchalik “Shu bilan birga” vositasida semantik yaxlitlikdan strukturaviy barqarorlikka o‘tiladi. AI matnida paragraf va fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishning yana bir xususiyati — mavzuni ketma-ket kichik mazmuniy qismlarga ajratishdir. Avval frazeologik birliklarning umumiy tavsifi beriladi, keyin ularning semantik yaxlitligi va strukturaviy barqarorligi, undan so‘ng ekspressiv-uslubiy imkoniyatlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari yoritiladi. Natijada matnning umumiy tematik yo‘nalishi saqlanadi va fikrlar bir mavzu doirasida izchil rivojlanadi.

Inson tomonidan yaratilgan matnda esa koheziya faqat bog‘lovchi birliklar orqali emas, balki tushunchalarning bosqichma-bosqich rivojlantirilishi va leksik-semantik munosabatlar orqali ham ta’minlangan. Matn tilning kommunikativ va nominativ vazifasidan boshlanib, avval leksik birliklar, keyin barqaror va turg‘un birliklar, undan so‘ng ularning grammatik hamda sintaktik xususiyatlariga o‘tadi. Bunday tashkil etilish natijasida matnda umumiy tushunchadan xususiy tushunchaga tomon harakat yuzaga keladi.

Inson matnida “ya’ni”, “bunda”, “shu bilan”, “lekin”, “shunday qilib”, “demak”, “bundan tashqari” kabi birliklar ham fikrlarning mantiqiy munosabatini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Biroq inson matnidagi bog‘lanishning muhim jihati shundaki, ushbu vositalar ko‘pincha oldingi fikrni shunchaki davom ettirmaydi, balki uni izohlaydi, chegaralaydi, qayta aniqlaydi yoki undan keyingi ilmiy xulosaga zamin yaratadi. Masalan, “Ya’ni” orqali tilning nominativ funksiyasi izohlanadi, “Lekin” orqali barqaror birliklarning sintaktik va leksik maqomi o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi, “Shunday qilib” orqali esa oldingi mulohazalar umumlashtiriladi.

Matnning mazmunan va mantiqan bog’lanishi nuqtayi nazaridan inson matnida argumentativ rivojlanish nisbatan yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif avval barqaror va turg‘un birikmalarning umumiy xususiyatlarini belgilaydi, keyin ularning til sathidagi maqomini muhokama qiladi va oxir-oqibat frazeologik birliklarni ushbu umumiy guruh tarkibida ajratib ko‘rsatadi.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil ikkala matnda ham matnning mazmunan va mantiqan bog’lovchi vositalari faol qo‘llanganini ko‘rsatadi. Biroq AI matnida bog‘lanish ko‘proq aniq diskurs markerlari va mavzuga oid leksik takrorlar orqali yuzaga kelgan bo‘lsa, inson matnida koheziya bilan bir qatorda tushunchalarning bosqichma-bosqich rivojlantirilishi, izohlash, qarama-qarshi qo‘yish va ilmiy manbaga tayanish kabi vositalar ham muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan inson matnidagi faqat formal bog‘lovchi vositalarga emas, balki argumentativ mazmunning izchil rivojlanishiga ham ko’proq e’tibor qaratilgan.

Xulosa Tadqiqotda inson tomonidan yaratilgan akademik matnlar va sun’iy intellekt yordamida yaratilgan akademik matnlarning lingvistik hamda diskursiv xususiyatlari qiyosiy

tahlil natijalari akademik diskursning an’anaviy lingvistik xususiyatlari sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarda ham ma’lum darajada namoyon bo‘lishini, biroq ularning qo‘llanish xususiyati va darajasida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, AI tomonidan yaratilgan akademik matnlar grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan izchil va akademik uslubning umumiy talablariga mos shakllanishi bilan ajralib turadi. Biroq inson tomonidan yaratilgan matnlarda leksik tanlovning xilma-xilligi, individual uslubning namoyon bo‘lishi, argumentatsiya strategiyalarining murakkabligi va muallif pozitsiyasining pragmatik jihatdan aniqroq ifodalanishi kuzatiladi. Bu jihatlar inson akademik yozuvining faqat axborot uzatish emas, balki muallifning ilmiy pozitsiyasini shakllantirish va o‘quvchi bilan ilmiy muloqot o‘rnatish vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, AI matnlarida fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish va strukturaviy izchillik nisbatan standart shaklda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lsa, inson matnlarida ushbu vositalarning qo‘llanishi muallifning individual kommunikativ maqsadi va argumentatsiya strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi

Pragmatik jihatdan esa inson tomonidan yaratilgan akademik matnlarda muallif pozitsiyasini ehtiyotkorlik bilan ifodalash, baholash va ilmiy da’volarning qat’iylik darajasini boshqarish kabi vositalarning faolroq namoyon bo‘lishi akademik diskursning muhim xususiyatlaridan biri sifatida ko‘rinadi. AI tomonidan yaratilgan matnlarda esa akademik uslubning umumiy me’yorlari yaxshi saqlangan bo‘lsa-da, individual mualliflik pozitsiyasi va stilistik o‘ziga xoslik nisbatan standartlashgan shaklda ifodalanishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot inson va AI tomonidan yaratilgan akademik matnlar o‘rtasidagi farq faqat grammatik to‘g‘rilik yoki matnning umumiy izchilligi bilan belgilanmasligini ko‘rsatadi. Mazkur farqlar, avvalo, leksik tanlov, stilistik xilma-xillik, argumentatsiya, diskursiv vositalardan foydalanish va muallif pozitsiyasining pragmatik ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan akademik matnlarni baholashda ularning grammatik jihatdan to‘g‘riligini aniqlash bilan cheklanmasdan, akademik diskursning lingvistik va pragmatik me’yorlariga muvofiqligini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining akademik yozuvga ta’sirini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish uchun muhim yo‘nalishlarni belgilaydi. Xususan, kelgusidagi tadqiqotlarda turli fan sohalariga mansub, kattaroq hajmdagi inson va AI matnlarini qamrab olish hamda ularni miqdoriy va sifat jihatdan kompleks tahlil qilish akademik diskursning sun’iy intellekt ta’sirida yuz berayotgan o‘zgarishlarini yanada chuqurroq aniqlash imkonini beradi.

REFERENCES

1. Van Dijk T. A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.
2. Hyland K. Academic Discourse: English in a Global Context. – London: Continuum, 2009.
3. Herbold S., Hautli-Janisz A., Heuer U., Kikteva Z., Trautsch A. A large-scale comparison of human-written versus ChatGPT-generated essays; Scientific Reports. – 2023. – Vol. 13.

4. Desaire H., Chua A. E., Isom M., Jarosova R., Hua D. Distinguishing academic science writing from humans or ChatGPT with over 99% accuracy using off-the-shelf machine learning tools.
5. Yusufjonova Sh. Ilmiy maqola: Frazeologik birliklarning ayrim xususiyatlari ; NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2020.